

SPORT- SOTSIAL INSTITUT SIFATIDA

Askaraliyeva Nazokat Mirzatilla qizi

askaraliyevanazokat@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Sotsial institutlar jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlash va ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etish orqali o'z vazifasini bajaradi. Ular odamlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, umumiy axloqiy qoidalarni shakllantirishga, jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Shunday institutlardan biri sifatida sport ham jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Sport bugungi kunda jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Sport jamiyat hayotida nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki unga ijtimoiy, iqtisodiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim soha sifatida ham qaraladi. Ushbu maqolada sportning sotsial institut sifatidagi o'rni, uning ijtimoiy hayotga ta'siri, shaxs kamolotidagi roli, sportning funksiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sport, sotsial institut, sport funktsiyalari, ijtimoiy, jismoniy tarbiya, jamiyat, shaxs

Kirish. Sport sotsial institut sifatida jamiyat hayotining turli sohalarida muhim rol o'ynaydi. Uning ijtimoiy institutsionallashuvi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, madaniyatni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yordam beradi. Sport shaxsni jismoniy tarbiyalabgina qolmay, balki uning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi, jamiyatni birlashtiradi va global madaniyat integratsiyasiga xizmat qiladi. Sport bugungi kunda nafaqat jismoniy tarbiya yoki ko'ngilochar faoliyat hisoblanadi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham ko'rib chiqilmoqda.

Sport qadim zamonlardan beri insonlar hayotining bir bo'lagi bo'lib kelmoqda. Yunonistonning qadimgi Olimpiya o'yinlari yoki Rim gladiatorlari bellashuvlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Sport jamiyatda muhim ijtimoiy institut sifatida bir qancha funksiyalarni bajaradi va katta ahamiyatga ega. Sportning funksiyasi deganda uning odamlar munosabatiga, shaxs hamda jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondirishga va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi oziga xos ob'ektiv xususiyatlari tushuniladi. Sport funksiyalarini o'z navbatida o'ziga xos va umumiyga ajratish mumkin.

Metod va materiallar. Ushbu maqolada hujjatlarni o'rganish metodi va internet ma'lumotlaridan, shu bilan bir qatorda sportni sotsial institut sifatida

o'rganish uchun ilgari chop etilgan ilmiy maqola, kitob va dissertatsiyalardan foydalanildi

Sport fenomeni kuchli ijtimoiylashuv qudratiga ega. "Sport" tushunchasi ko'p qirrali o'lchov birligi bo'lib, u o'zaro munosabatlar tizimida bir qancha funksiyalarni bajarib, ularni umumlashtiradi. Sport sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha ta'riflanadi: "Sport- sotsial institut bo'lib, inson hayoti, faoliyati, ya'ni inson xatti-harakatlari, salomatligi, turmush tarzi orqali jismoniy madaniyatni namoyon etuvchi turli elementlardan iborat murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy fenomen hamda sotsiomadaniy voqelikdir". Sport esa shu muammoni hal etishda asosiy faoliyatlardan biri hisoblanib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1) jismoniy va intellektual salohiyatni oshirish; 2) salomatlikni mustahkamlash va uni rivojlantirish; 3) mehnat unumdorligini ko'paytirish; 4) individni shaxs sifatida shakllantirib, uning qobiliyatlarini takomillashtirish; 5) akme shaxsni tarbiyalash, ya'ni "barkamol shaxs"ni tarbiyalaydi.[1]

Sport jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro musobaqalarda global darajadagi birdamlikni kuchaytirsa, milliy sport turlari milliy identitetni shakllantiradi. Masalan, J.Hargreaves o'z asarida sportni ijtimoiy integratsiyaning kuchli vositasi deb ta'riflaydi.[2]

Sport bolalar va yoshlarda intizom, mas'uliyat, jamoaviy ishlash kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Ta'lim tizimida sport faoliyatining keng qo'llanilishi yosh avlodning sog'lom va ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.[3]

Muxokama va natijalar. Sport jamiyatdagi turli guruhlarini birlashtiruvchi kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Xalqaro musobaqalar, masalan, Olimpiya o'yinlari, turli millatlar o'rtasidagi tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Milliy sport musobaqalari esa xalqlarning tarixiy-madaniy birdamligini kuchaytiradi. Sport nafaqat jismoniy sog'lomlikni ta'minlaydi, balki yoshlarda intizom, jamoaviylik va mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. U ta'lim tizimida yoshlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim o'rin egallaydi.

Sport ijtimoiy institut sifatida jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlashda, madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishda va iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda sport davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, yoshlar tarbiyasi, gender tenglik va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashda sportning o'rni beqiyosdir

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sport jamiyat hayotida boshqa sohalar singari, ham jismoniy ham ijtimoiy jihatdan muhim o'rin egallaydi. Sport millatlarni birlashtiradigan, xalqlarni jipslashtiradigan va ular o'rtasida o'zaro do'stlik, birodarlik rishtalarini bog'laydigan vosita ham hisoblanadi. Bugungi kunda

mamlakatimizda sportga katta e'tibor qaratilgan va davlat tomonidan sport sohasi uchun alohida budjetlar ham ajratiladi. Respublikamizda sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bularning yorqin misollarini mamlakatimiz bo'ylab zamonaviy sport majmualari, stadionlar, sog'lomlashtirish markazlari qurilayotganida, yurtimiz sportchilarining xalqaro musobaqalarda faol ishtiroki va yuqori natijalarga erishayotganida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramov X. Sport yoshlar turmush darajasini oshirishning ijtimoiy indikatori sifatida. Sots.fan.b.fal. dok (PhD). Avtoreferat. Toshkent: 2023. –54 b;
- 2.Hargreaves.J.(1989). Sport, Power and Culture. Cambridge: Polity Press
- 3.X.Jabborov (2020). Sog'lom turmush tarzi asoslari. Toshkent:O'zMU nashriyoti
- 4.To'xtayev.R. "Sport va jamiyat:ijtimoiy ahamiyat". Toshkent: Sharq. 2021.